

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

## NAVOIY DEBOCHALARIDA FAXRIYA

**Sarvinoz Otaqulova**

*O‘ZRFA o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiyning “Badoye ul-bidoya” hamda “Xazoyin ul-maoniy” devonlaridagi debochalarida faxriyaning qo‘llanilish darajasi, shuningdek, o‘ziga xos xususiyatlari, faxriyalarda shoir shaxsiyati va ijodiga aloqador ma‘lumotlarning ifodalanishi haqida bahs yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** debocha, faxriya, surush, hotif, rind, jur‘achi, husni taxallus.

**Аннотация:** В статье исследуется и подробно анализируется уровень использования художественного средства факрии в прелюдиях Алишера Навои к девонам “Бадойе уль-бидойя” и “Хазойин уль-маони”, а также его особенности, выражение в факрии информации, относящейся к личности и творчеству поэта.

**Ключевые слова:** debocha, fakhria, surush, hotif, rind, xabryiy, husni psevdonim.

**Annotation:** In the article, Alisher Navoi's debochas to the “Badoye ul-bidoya” and “Khazoyin ul-maoniy” devons, the degree of application of the fakhria artistic medium, as well as its peculiarities, the expression of information related to the poet's personality and work in veterans, the fine arts in it were studied and comprehensively, analyzed.

**Key words:** debocha, fakhria, surush, hotif, Jur'achi, husni is a pseudonym.

Ma‘lumki, faxriya “ijodkorning o‘z ijodiy muvaffaqiyatlari bilan faxrlanish hissini ifoda etadigan adabiy usul”[Y.Is‘hoqov. So‘z san‘ati so‘zligi. 254] dir. Navoiy faxriyalari esa “...shunchaki o‘zidan faxrlanish bo‘lmay, shoirning badiiy olamiga kirish yo‘lidagi ochqichlar” deyish mumkin [A.Navoiy. Qomusiy lug‘at.77]. Faxriyalarda ijodkorning muayyan asariga xos xususiyatlar, uning badiiyati, mavzu ko‘lami haqida ham fikr yuritiladi. Bu ham ularning Navoiy ijodini o‘rganishda muhim ahamiyatini tasdiqlaydi. Masalan, shoir “Badoye ul-bidoya” debochasida faxriya mazmunidagi quyidagi parchani keltiradi: “Bu parishon ajzoning varaqnigori va bu oshufta avroqning qissaguzori, mehnat paymonasining jur‘achisi va malomat xumxonasining sabukashi, shaydoliq mahallasining rasvosi va rasvoliq ko‘chasining shaydosi.

*Vafo bo‘stonining dostonsaroyi,*

*Malomat bulbuli, ya‘ni Navoiy”. [MAT 1.7]*

**Mazmuni:** Bu tarqoq kitob qismlarini bezovchi va oshufta varoqlarning, ya‘ni devon tarkibidagi oshiqona ruhda yozilgan she‘rlarning hikoyachisi, muallifi va ta‘nadaashnomlarga yo‘liqqan mayxonaning may quyuvchisi, shaydolik mahallasining rasvosi va rasvolic ko‘chasining shaydosi.

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Debochadan o‘rin olgan ushbu faxriya qismda Navoiy tarqoq kitob qismlarini bezovchi ekanligini aytish bilan ilk marta yozgan she‘rlarini to‘plab, rasmiy devon tuzganligiga ishora qiladi va bunday ulug‘ ishni muvaffaqiyatli bajara olganidan faxrlanadi.

Ma‘rifiy adabiyotda jur‘a “yorning betoqat qiluvchi yodini bildiradi. Sajjodiy ushbu istiloh solikka noma‘lum qolib ketgan sir-asror va maqomotlarni anglatishini” aytib o‘tgan. [M.Asadov. Soqiynoma: tarix va poetika.128] Debochada jur‘achi ilohiy ma‘rifat bilan bog‘liq sir-asrorlardan ogoh etuvchi murshid sifatida gavdalanadi. Bu bilan Navoiy kitobini o‘qiyotgan kitobxon nafaqat devondagi she‘r va g‘azallarning badiiyati, balki ilm va ma‘rifatdan ham bahramand bo‘lishi mumkinligini ta‘kidlab, devoni keng ko‘lamli mavzudagi she‘rlardan tashkil topganligiga ishora qilgan.

Nasriy qismdan keyin keltirilgan baytda shoir o‘zini vafo bo‘stonida doston aytuvchi bulbulga qiyoslab, ishq bobida yuksak maqomga erishganligidan iftixor tuyadi.

Debochada faxriya ruhida yozilgan nasriy va nazmiy abyotlar ikki xil usulda ifodalanadi: birinchisi shoirning o‘zi, ikkinchisi esa g‘oyibdan kelgan ovoz, ya‘ni Surush – hotif tilidan bayon etiladi. Yuqoridagi faxriya ijodkorning o‘zi tomonidan keltirilgan badiiyat namunasi.

Navoiy asarlarida Surush (ba‘zi manbalarda hotif deb yuritiladi) shoir shaxsiyatiga aloqador biror ilohiy xabar yetkazuvchi farishta sifatida talqin qilingan. Bunda hotif ijodkorning salohiyatiga yuksak baho berib, yangi asarlar yozish yoki devon tartib berish kabi ijodiy ishlarga rag‘batlantiradi. Navoiyda Surush shoirning biror qaror qabul qilishga ikkilangan paytlarida “unda o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonch tug‘dirib, faollikka chorlovchi kuch” sifatida gavdalanadi. [Y.Is‘hoqov. So‘z san‘ati so‘zligi.178]

Mutafakkir shoirning “Xazoyin ul-maoniy” devoni debochasida Surush tomonidan keltirilgan faxriya mavjud: “...chun senga tavfiq madad qiliptur-u, bu maqsudning hech kimga yig‘ilmagan moddasi yig‘iliptur. Tilarbizkim, fursatni g‘animat bilg‘aysen-u, bu muddao xusulig‘a rag‘bat qilg‘aysen” [MAT 3.11] Bu o‘rinda Surush Navoiyga ijodiy imkoniyati yordami bilan hech kimda uchramaydigan betakror abyotlar (moddalar) mavjudligi uchun fursatni boy bermay, devon tuzishga kirishishini aytadi hamda shoirning yuksak ijodiy iqtidoriga bo‘lgan ishonch-u iftixori Surush tilidan bayon etiladi. Bundan tashqari devon debochasidagi ruboiylarning aksariyati mazmunan faxriya ruhida yozilgan:

*Bu bahrki, ganji lomakoniy dedilar,  
Har qatrasin obi zindagoniy dedilar.*

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Shoh mahzani tab'idin nishoni dedilar,*

*Kim ani “Xazoyin ul-maoniy” dedilar. [MAT 3.17]*

Navoiy o‘z she‘riyatini bahrdagi hech qayerda topilmaydigan noyob xazinaga o‘xshatadi. Ruboiyda bahr so‘zi she‘riyat maydoni va bu maydonda turgan mashhur shoirlar asarlarini ifodalab kelgan. Ulug‘ shoir esa o‘z devonini bu dengizdagi “lomakoniy ganj”, ya‘ni makonsiz xazinaga qiyoslab, yangicha ruh va usulda mukammal bir to‘plam yaratganligini, shu sababdan bu devon hech kimnikiga o‘xshamasligini iftixor ila ta‘kidlaydi. Ikkinchi misrada bu bahrning har bir qatrasini – devon tarkibiga kiritilgan har bir katta va kichik she‘rlarni tiriklik suviga muqoyasa qilgan holda ijodidan faxrlanadi.

Uchinchi misrada bu devon shohning ko‘ngil xazinasi nishoni sifatida tartib bergani, zamona shohi Husayn Boyqaroning xohishi va topshirig‘i, qo‘llab-quvvatlashi natijasida tuzilganiga ishora qilingan. Ruboiyning so‘nggi misrasida mutafakkir shoir o‘z devonining nomini ham keltirib o‘tadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, faxriyalarda buyuk shoir faqatgina o‘zi va ijodini maqtashni maqsad qilmaydi, balki devondagi she‘rlarining mavzu ko‘lami, shuningdek, kulliyotni jamlab, yagona holga keltirish jarayonida ruhiyatida yuz bergan o‘zgarishlarni oshkora bayon etadi. Faxriyalarni monografik jihatdan tadqiq etish Navoiy shaxsiyati, u yashagan ijtimoiy, adabiy muhit xususida muayyan tasavvurga ega bo‘lishimizga ham yordam beradi.

## **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. I jild. – Toshkent: Fan, 1987. – 690 b.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. III jild. – Toshkent: Fan, 1988. – 575 b.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. XIV jild. – Toshkent: Fan, 1998. – 315 b.
4. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. 2 jildlik. II jild. – Toshkent: Sharq, 2016. – 480 b.
5. Asadov M. Soqiyнома: tarix va poetika. – Toshkent: Tafakkur, 2020. – 350 b.
6. Is‘hoqov Y. So‘z san‘ati so‘zligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 320 b.